

*O'rolova Munira Faxriddin kizi**Guliston davlat pedagogika instituti**O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi***ALISHER NAVOIY IJODI ZAMONDOSHLARI NIGOHIDA**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hazrat Mir Alisher Navoiy hayoti va ijodi, davlat va jamoat arbobi sifatida qilgan xayrli ishlari, turkiy til rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, ijod yo'lidagi mashaqqatlari yoritiladi. Jumladan, Navoiy asarlaridagi teran va falsafiy qarashlar, ma'naviy-axloqiy jihatlar, bugungi kunda yoshlar tarbiyasi uchun ibrat maktabi bo'lib kelayotgan asarlari haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Shuningdek, bu maqolada Hazrat Navoiyning zamondoshlari uning ijodini yuqori baholagani va zehniga tahsinlar o'qigani ham yoritilgan. Alisher Navoiy 4 yoshida maktabga chiqqani, 7 yoshida o'sha davrning eng mashhur forsiyzabon shoirlaridan biri bo'lgan Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini yoddan bilgani va ijod faoliyatini erta boshtaganligi hamda 7-8 yoshlarida she'rlar mashq qila olganligi, zamondoshlarini hayratda qoldirganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, davlat va jamoat arbobi, asarlari, zamondoshlari, lirik merosi, madrasa, shifoxona, kutubxona, Jome' masjidi, zullisonayn, Foni.

Annotation: This article covers the life and work of Hazrat Mir Alisher Navoi, his good deeds as a state and public figure, his great contribution to the development of the Turkic language, and his hardships on the path to creativity. In particular, it briefly describes the deep and philosophical views, spiritual and moral aspects of Navoi's works, and his works that are still a model for the education of young people today. This article also highlights the high appreciation of Hazrat Navoi's work by his contemporaries and their admiration for his mind. It is stated that Alisher Navoi started school at the age of 4, at the age of 7 he memorized the epic poem "Mantiq ut-tair" by Fariduddin Attar, one of the most famous Persian poets of that time, and began his creative activity early, and at the age of 7-8 he was able to rehearse poems, surprising his contemporaries.

Keywords: Alisher Navoi, statesman and public figure, works, contemporaries, lyrical heritage, madrasa, hospital, library, Jame' mosque, zullisonayn, Foni.

Абстрактный. В данной статье описаны жизнь и деятельность хазрата Мира Алишера Навои, его добрые дела как государственного и общественного деятеля, его большой вклад в развитие турецкого языка, его усилия на пути творчества. В частности, была дана краткая информация о глубоких и философских взглядах, духовно-нравственных аспектах творчества Навои, которые сегодня становятся образцовой школой воспитания молодежи. В этой статье также упоминается, что современники хазрата Навои ценили его творчество и хвалили его интеллект. Рассказывают, что Алишер Навои пошел в школу в 4 года, в 7 лет выучил наизусть эпос «Мантик ут-тайр» одного из самых известных персоязычных поэтов того времени Фаридиддина Аттара и рано начал свою творческую деятельность.

Ключевые слова: Алишер Навои, государственный и общественный деятель, произведения, современники, лирическое наследие, медресе, больница, библиотека, мечеть Джоме, Зуллисонайн, Фони.

KIRISH. Buyuk mutafakkir, olim, davlat va jamoat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi, so'z mulkining sultonni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy Hirotning Bog'i Davlatxona atalmish joyida tavallud topgan. Navoiy oilasi Hirotdagi tahlikali vaziyat tufayli Iroqqa ko'chib ketayotganida Yazd cho'lining Taft qishlog'ida Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Suhbat davomida Alisher Navoiy Qur'oni Karimning "Taborak" surasiga yetganini aytadi, bundan hayratda qolgan Ali Yazdiy uning bilimiga, ilmiga hayratda qoladi va uning haqqiga duolar o'qiydi. Uning haqiqatdan ham bilimli ekanligini sezadi. Bundan tashqari mavlono Lutfiy Alisher Navoiyning 10-12 yoshlarida yozilgan

Orazin yopg'och ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'yakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh
misrali g'azaliga yuqori baho berib, agar iloji bo'lsa o'zining fors va turkiyda yozgan o'n ikki ming baytini almashmoqchi bo'lganligini ta'kidlagan. Bu ham Navoiyning o'tkir zehnli ekanligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy davlat va jamoat arbobi sifatida samarali faoliyat yuritgan. Alisher Navoiy xonning eng ishonchli kishisi bo'lganligi tufayli xon uni avval muhrdor¹ so'ng vazir lavozimiga tayinlaydi. Uning aql-zakovatiga tan bergen shoh "muqarrabi hazrati sultoniy" (sulton hazratlarining eng yaqin kishisi)² unvonini beradi. Alisher Navoiy vazirlik yillarida Hirotda katta islohotlar avj olgan, madaniyat, ilm-fan gullab yashnagan. Shaharlarni obod qildirgan, ariqlar qazdirgan, shifoxona, kutubxonalar, madrasalar qurdirgan. Ko'plab muhtojlarga yordam bergen. Davlatshoh Samarcandiy o'zining "Tazkirat ush-shuar" asarida Hirotdagi Navoiy boshchiligidida amalga oshirilgan islohotlar haqida qiziqarli ma'lumotlar berib o'tgan. Xondamirning yozishicha, Alisher Navoiy zilzila bo'lib, butkul vayron bo'lgan Hirotdagi Jome' masjidini qayta tiklangan. "Ilgimdan kelganicha", - deb yozadi "Vaqfiya" asarida Navoiy. "- zulm tig'in ushotib(sindirib), mazlum jarohatig'a intiqom marhammini (qasos malhammini) qo'ydim. Va ilgimdan kelmaganini ul Hazrat (Husayn Boyqaro) arzig'a yetkurdim"³. Shoiring Hirotni obodonlashtirish borasidagi ishlarining bat afsil ro'yxatini Xondamir "Makorim ul – axloq" asarida keltirgan.

Alisher Navoiy davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining sevimli mashg'uloti bo'lgan badiiy ijodni ham to'xatmadni. Shoiring butun umrini turkiy til mavqeyini ko'tarish uchun bag'ishladi. Alisher Navoiy turk va fors tillarida ijod qilgan bo'lib, zullisonaynlik an'anasi Navoiy davrida oliy cho'qqisiga yetgan. Shoiring kichik zamondoshi Zahiriddin Muhammad Bobur shoiring badiiyatini juda muxtasar tarzda ifodalab bergen: "Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytiburlar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilib tur, beshi "Xamsa" javobida, yana biri "Mantiq ut-tayr" vaznida "Lison ut-tayr" otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat", "Favoyid ul-kibar" otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana "Mezon ul-avzon" otliq aruz bitib tur. Forsiy nazmda "Foni" taxallus qilib tur. Yana musiqiyida yaxshi nimalar bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur"⁴. Haqiqatdan ham shoiring Zahiriddin Muhammad Bobur ta'kidlaganicha bor. Uning jami asarlari 20 jildni tashkil etadi. Alisher Navoiy Sharq she'riyatining 16 xil janrida ijod qilgan bo'lib, g'azal, tuyuq, ruboiy, qit'a, fard, muxammaslar yozgan. Alisher Navoiyning turkiy tilda yozilgan barcha she'rlari "Xazoyin ul-maoni" kulliyotiga kiritilgan. Forsiy tilda yozilgan g'azallari "Devoni Foni" devoniga kiritilgan. Alisher Navoiy lirik janrda qalam tebratibgina qolmay, balki tarixiy, ilmiy va didaktik

¹ Muhrdor – davlat hujjatlarini rasmiylashtiruvchi amaldor.

² Shohning oldiga bir masala bilan 7 marta kirish huquqini bergen.

³ Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. – T.: Sharq, 2017. – 170-171-bet

⁴ Sariyev Sh. – T.: Regbooks, 2020. – 185-bet.

janrlarda ham asarlar yozgan. Uning tarixga oid “Tarixi mulki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Vaqfiya” kabi tarixiy asarlari, til, adabiyot va tazkirachilikka⁵ bag’ishlangan “Majolis un-nafois”, aruz ilmiga bag’ishlangan “Mezon ul-avzon”, turk va fors tillarini qiyoslab yozgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi asarlari mavjud. “Majolis un-nafois” asari Navoiyning eng saviyali asarlaridan biridir. Xondamirning ma’lumot berishicha bu asar Shoxruh mirzo podshohligi zamonidan Alisher Navoiy zamonigacha bo‘lgan ko‘plab shoir, yozuvchi, ijodkorlarning hayoti, ijodi, qilgan hayrli ishlari haqida ma’lumotlar keltirilgan va ayrim adiblarning fazilatlari, fe’l-atvori olib berilgan. Shuningdek, bu asarda adabiyotga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlar ham uchraydi.

Alisher Navoiyning zamondoshlari buyuk mutafakkirning ijodini, boy adabiy merosini yuqori baholab, u haqida iliq fikrlarni aytib o‘tgan. Davlatshoh Samarcandiy “Tazkirat ush-shuar” asarida “Bu mashhur va oliy darajali amirning otasi zamonasining mashhur kishilaridan va Chig‘atoj ulusining ulug‘laridan va sulton Abulqosim Bobur bahodir hukmronligi davrida sultonning yaqin kishisi bo‘lib, mamlakatni idora qilish va davlatga kafillik uning ixtiyorida edi. Benihoyat fozilligidan hamma vaqt o‘g‘liga fazilat o‘rgatdi, tamom himmatini saodatmand farzandini ilm-hunar bezaklari bilan ziynatlash hamda hidoyat nurlari bilan ravshan qilishga sarf qildi. ...Ul buzrukvorining tirishib qilgan harakati behuda ketmadi va otasidan keyin nodiri davronlik, izzat-u tamkinlik⁶ kursisida qaror topdi. Ul ulug‘ amir mag‘firatli podshoh zamonida uning hashamati va himmati bilan hamma vaqt fazilat orttirishga intildi, fazl egalarining suhbatini topdi, karamli ta’bi va o‘tkir zehni she’r aytish, o‘tmish tarixini o‘rganishga qaratildi. Yoshlik paytidayoq ikki til egasi: turkiyda sohibi fan, forsiyda fazl egasi bo‘ldi. Ulug‘ amirning turkiy devoni sultonlar, aslzodalar majlisi bezagidir. Navosi navo ohangida ushshoqi benavolarni to‘g‘ri yo‘lga solib qo‘ydi. Muholiflar uning qalami g‘ijirlashidan mag‘lub, xusravoniy ohangi Sulton Husaynga mahbubdir. Qanday yaxshiki, uning ovozasi turklar mamlakatidan Hijozagacha... dovrug‘i Nishopurdan Isfaxongacha yetdi. Ajam mamlakati ahli qulog‘iga bu sadodan sirg‘a taqib, olamning hamma burchaklari bu daryo gavhari bila to‘lib toshgandir. Tong nasimi uning xabarini Iroqqa yetkazdi va Tubo daraxti⁷ barglarini bu nihol shoxlariga yopishtirdi...”⁸ jumlalarini keltirib, Hazrat Navoiyini ulug‘lagan. Demak, biz bu ma’lumotlar orqali Navoiyning shu darajaga yetishiga otasining hissasi katta ekanligini bilishimiz mumkin. Shoir zamondoshlaridan yana biri Burxoniddin Atoulloh Alisher Navoiy haqida quyidagi fikrlarni aytgan: “Falak miri janobi Alisher ulug‘lidir, kamoloti yetukligini faxmlashga aql ojizlik qiladi. Shabon oyi oxirida dod-adl uchun devonga o‘lturdi, bu uning haqqi edi odil podshoh lutfidan. Zamon sultoni davlatida muhr bosgani uchun, “Mir Alisher muhr zad” so‘zi bunga tarix bo‘ldi”⁹. Xususan, Abdurahmon Jomiy o‘zining “Bahoriston” asarida Navoiy haqida “...turkiy tilda hech kim Navoiydek ko‘p va xo‘p she’r aytmagan hamda nazm gavharlarini sochmagan edi”¹⁰, - deya ta’kidlab o‘tgan. Do‘sti, Husayniy taxallusi bilan she’rlar yozgan shoh va shoir Husayn Boyqaro “... turk tilining o‘lgan jasadig‘a Masih anfosi bila ruh kiyurdi va ul ruh topqonlorg‘a turkiy oyin alfoz tor-u pudidan to‘g‘ulg‘an hull ava harir kiyurdi”¹¹ deya Alisher Navoiy Hazratlarini ko‘klarga ko‘tardi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida 21mingta so‘z

⁵ Tazkira – ijodkorlar haqida ixcham ma’lumot va ayrim asarlaridan namuna keltiriladigan to‘plam.

⁶Tamkin – mustahkamlashmoq, mustahkam o‘rnashmoq.

⁷Tubo daraxti – jannatdagi daraxtlardan biri. Qur’onda Tubo daraxti haqida “Rad” surasida(13:29) bayon qilingan.

⁸ Shuhrat Sirojiddinov .”Alisher Navoiy zamondoshlar e’tirofida” .Kh-davron.uz

⁹ Shuhrat Sirojiddinov. “Alisher Navoiy zamondoshlar e’tirofida”. Kh-davron.uz

¹⁰ Sariyev Sh. – T.:Regbooks,2020 – 185-bet.

¹¹ Sariyev Sh. – T.:Regbooks,2020 – 185-bet.

ishlatganligi yuqoridagi Husay Boyqaro tomonidan berilgan maqtov to‘g‘riligining isbotidir. Rashidiy “Alisher Navoiyning kelib chiqishi baxshilarga borib taqaladi. Otasini “Kichkina baxshi” deyishgan, u saroyda amaldor bo‘lgan. Mir Alisher bolalikdan Sulton Husayn mirzo bilan do‘splashgan. Sulton Husayn mirzo podshoh bo‘lgach, Alisher Navoiy uning xizmatiga kelgan, mirzo uni behad qadrlab, g‘amxo‘rliklar ko‘rsatgan, Mir Alisher esa xalqqa xuddi shunday g‘amxo‘rliklar qilgan”¹² degan qimmatli ma’lumotlarni aytib ketgan. Hakimshoh Qazviniy ham Alisher Navoiy ijodini yuqori baholab, quyidagi maqtovlarni keltirgan: “Hech kim turkiy she’rni undan yaxshiroq ayta olmagan va nazm durlarini undan yaxshiroq socha olmagan”¹³. Alisher Navoiy o‘z zamonasidayoq shuhrat topgan allomadir. Alisher Navoiy haqida qancha gapirlisak shuncha ozdir. Uning badiiy merosi juda ham ulkan. Shoир asarlari inson ma’naviyatini yuksaltiradi, uning kamol topishida yetakchi o‘rin tutadi.

Hazrat Alisher Navoiyni anglamoq, o‘zlikni anglamoqdir. Shoирning ijodi mavjlanib, to‘lqinlanib oqayotgan bir dengiz misolidir. Bu dengizning har bir tomchisida olam-olam hikmat, olam-olam ma’no bor. Bu hikmatlarni o‘rganish orqali inson komilikka erishadi. Alisher Navoiy ulug‘, betakror shoир bo‘lganligidan, uning asarlari hanuzgacha abadiy yashamoqda. Navoiy ijodini o‘rganish o‘z zamonasidan to hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Hozirgi kunda shoир ijodini ko‘plab olimlar, adabiyotshunoslari o‘rganib kelmoqda. Ko‘plab adabiyotshunoslari, shoир va yozuvchilarimiz Alisher Navoiy hayotiga, ijodiga, besh asrdan buyon o‘z mavqeyini yo‘qotmay kelayotgan adabiy merosiga bag‘ishlab asarlar, she’rlar yaratmoqda. Bunga misol qilib, Muso Toshmuhamad o‘g‘li Oybekning “Navoiy” romanini keltirishimiz mumkin. Oybek bu asarning kirish qismida quyidagi jumlalarni keltirgan: “Navoiy she’riyati va Navoiy obrazi hamisha kuchli bir quyosh kabi ko‘nglimni tortar edi. O‘z asarimda shoир Navoiy obrazini yaratishga zo‘r mayl, orzu, istagim bor edi. Lekin tarixga ko‘z tashlasam, Navoiy ulug‘, buyuk bir siymo holida qarshimda turar edi. Yoshligimdan beri Navoiyning o‘lmas, abadiy she’rlarini sevib o‘qir edim, uning jozibali g‘azallari borgan sari ko‘nglimga singib bordi, shakl va mazmunlari yuragimni mast va maftun etdi”¹⁴. Bu asarda Hazrat Alisher Navoiyning oqilligi, donoligi, haqqparvarligi, insonparvarligi, oliyanobligi kabi fazilatlari yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. O‘zbekiston xalq shoiri Mirtemir bilan bo‘lgan suhbatlarning birida uning kabinetidagi kitob javonining bir chekkasida Navoiyning, ko‘zga yaqin joyida Pushkinning surati turishining sababi so‘ralganda shoир kamtarlik bilan quyidagicha javob bergen: “Men Pushkinga qarashga uyalmayman, chunki uning butun ijodini o‘rganganman. Hazrat Alisher Navoiyga qarashga esa uyalaman, sababi, u kishining ijodini aql bilan ham, qalb bilan ham anglab yetganimcha yo‘q”. Alisher Navoiyning ijodini o‘rganish, asrash va kelgusi avlodlarga yetkazish bizning burchimizdir. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov aytganidek: “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoир desak, shoirlarning sultonidir”¹⁵.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Alisher Navoiyning asarlari yo‘limizni yoritib turuvchi mash’aladir. Kundalik hayotimizni uning hikmatlarisiz tasavvur qilish qiyin. Alisher Navoiy insonlarga xos bo‘lgan fazilatlar naqadar ulug‘ ekanligini har bir asariga singdirgan. Axloqiy-falsafiy qarashlar singdirilgan asarlari orqali o‘z zamonasidagi insonlarni ma’rifatga chorlagan va bu asarlari orqali ularga ma’naviy ozuqa bera olgan. Biz ham Navoiy asarlarini o‘qish va bu asarlar zamiriga yashiringan ma’nolarni anglash orqali kamol topamiz. Shu bilan

¹² To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017 – 81-bet.

¹³ To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017 – 81-bet.

¹⁴ Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. “Navoiy” roman. – T.: Oltin Qalam, 2023.

¹⁵ Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008 – 47-bet.

birga qalbizimning tub-tubidagi insoniy xislatlarlarni uyg'ota olamiz va ma'rifat sari qadam tashlay olamiz. Bularning barchasiga Navoiy asarlarini teran anglash orqali erishishimiz mumkin. Shunday ekan, Alisher Navoiyning purhikmat asarlari mutolaasiga hozirdanoq kirishaylik!

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Dod demoqqa palla bo'lgani shudir.
Ma'rifatdan ayru o'ynasa, kulsa,
Aza chog'i yalla bo'lgani shudir.
(Erkin Vohidov "O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa...")

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'limg muktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua). – Toshkent: Sharq, 2009 -166 b.
2. Sariyev Sh. Adabiyot: Mukammal qo'llanma (eng yangi nashr). – Toshkent: Regbooks, 2020.
3. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K., Adabiyot (Umumiy o'rta ta'limg muktablarining 10-sinf uchun darslik-majmua I qism). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
4. Po'latov Sh. Adabiyot: Qulay qo'llanma. – Toshkent: Regbooks, 2021.
5. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. "Navoiy" roman. – Toshkent: Oltin qalam, 2023.
6. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. <https://kh-davron.uz>.